

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**X RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**YANGI DAVR ILM-FANI:
INSON UCHUN INNOVATSION
G'OYA VA YECHIMLAR**

**X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil).– 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Erkinov Alisher

BUXORO SHAHRINING TURAR-JOY MAHALLALARI, AHOLISI SONI VA
ETNIK TARKIBI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 5-8

Sheripova Mahliyo

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGINING MADANIY MUHITI VA
KOMIL XORAZMIY FENOMENI 9-14

Yusupov Xamdambek

XORIJ TARIXSHUNOSLIGIDA AFRIG'IYLLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI
MASALASI: YONDASHUVLAR VA QARASHLAR 15-19

Xo'jayeva Inobat

YANGI O'ZBEKISTON VA YUNESKO: MADANIY MEROS, TA'LIM VA
BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIK 20-26

Abdullayeva Shoxnoza

XORAZM TANBUR CHIZIG'I — SHARQ MUSIQA MADANIYATIDA NOYOB
NOTA YOZUVI TIZIMI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI 27-32

Xakimov Mansurbek

OROL FOJIASI – GLOBAL EKOLOGIK MUAMMO SIFATIDA 33-40

Xudoyorov Abrorjon

"XORAZM HAQIQATI" GAZETASIDA QISHLOQ MEHNAT AHLINING URUSH
YILLARIDAGI HAYOTI VA JASORATI MAVZUSINING YORITILISHI 41-43

Matchonova Nilufar

AMUDARYO HAVZASIDA IJTIMOYIY TARIX VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARNING
O'ZARO TA'SIRI: EFTALIYLLAR DAVRI ANTROPOGEN LANDSHAFTLARI VA
SOTSIO-EKOLOGIK MOSLASHUV (V–VI ASRLAR) 44-49

IQTISODIYOT FANLARI

Иногамова Наира

ЦИФРОВИЗАЦИЯ КАК ФАКТОР УСКОРЕНИЯ ПРОГРЕССА ПО ЦЕЛЯМ
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА 50-54

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Diloromkhan

THE FUNCTIONAL ASPECT OF POLITICAL EUPHEMISMS IN DARI LANGUAGE
NEWSPAPER TEXTS 55-58

Akbarova Ma'suma

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK LEKSIKASINING LINGVOMADANIY
TAHLILI 59-61

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY DISKURSIDA MODALLIK IFODASI:
QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL 62-67

YURIDIK FANLAR

Xushboqov Himoyiddin

KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DALILLARNI AUTENTIFIKATSIYA
QILISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI 68-74

PEDAGOGIKA FANLARI

Xaydarova Namunaxon

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA
UNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 75-78

Gulamov Shavkat

TALABALARDA ILMIY DALILASH VA LOGIK ARGUMENTATSIYA QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH 79-84

Yalgasheva Zilola

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNING
USLUBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 85-87

Rasulova Dilafruzxon

XALQARO PEDAGOGIK ATAMALARNI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY
YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI 88-92

TARIX FANLARI

BUXORO SHAHRINING TURAR-JOY MAHALLALARI, AHOLISI SONI VA ETNIK TARKIBI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**Erkinov Alisher Muxiddin o'g'li**

Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Email: erkinovalisher3634@gmail.com

Tel: +998 99 757 36 34

Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezis XIX–XX asrlar boshlarida Buxoroda yashagan o'zbek urug'larining tarixiy-etnografik tavsifiga va ularning shahar hayotidagi ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy o'rniga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — inqilobdan oldingi davrda Buxoro turar-joy mahallalari (guzarlar) tizimi orqali o'zbek urug'larining shakllanishi, ijtimoiy tuzilishi va etnik jarayonlarini o'rganishdan iboratdir.

Tahlilning ilmiy asosini O.A. Suxarevaning fundamental etnografik tadqiqotlari tashkil etadi. Olimaning ishlarida arxiv hujjatlari, dala kuzatuvlari, statistik materiallar va rus hamda yevropalik sayyohlarning yozma manbalari birgalikda ishlatilgan. Bu manbalar orqali Buxoro o'zbeklarining etnik tarixi, mahallaviy hayoti va ko'p millatli shahar muhitidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan.

Natijada Buxoro shahrining mahallaviy tuzilishi va aholisining etnik tarkibi o'sha davrning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim omil ekanligi ko'rsatildi. Olingan xulosalar Markaziy Osiyo shaharlarining ichki ijtimoiy tuzilishi va etnogenetik jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar. Buxoro shahri, turar-joy mahallalari, guzar, etnik tarkib, o'zbek urug'lari, Markaziy Osiyo, XIX–XX asr, etnografiya, shahar aholisi, ijtimoiy tuzilish.

THE RESIDENTIAL QUARTERS, POPULATION AND ETHNIC COMPOSITION OF BUKHARA CITY (LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURIES)**Erkinov Alisher Mukhiddin ugli**

Doctoral student of Bukhara State University

Annotation. This thesis is devoted to the historical-ethnographic description of Uzbek tribal groups who lived in Bukhara in the late 19th and early 20th centuries, and their social, political, and cultural role in urban life. The main aim of the study is to examine the formation, social structure, and ethnic processes of Uzbek tribes through the system of residential quarters (guzars) in pre-revolutionary Bukhara.

The scientific basis of the analysis is formed by the fundamental ethnographic research of O.A. Sukhareva. In her works, archival documents, field observations, statistical materials, and written sources by Russian and European travelers and diplomats are combined. Through these sources, the ethnic history of Bukhara Uzbeks, their mahalla life, and their place in the multi-ethnic urban environment are scientifically illuminated.

As a result, it is shown that the mahalla structure and ethnic composition of Bukhara's population were important factors reflecting the socio-cultural characteristics of the feudal period. The obtained conclusions contribute to a deeper understanding of the internal social structure and ethnogenetic processes in the cities of Central Asia.

Keywords: Bukhara city, residential mahallas, guzar, ethnic composition, Uzbek tribes, Central Asia, 19th–20th centuries, ethnography, urban population, social structure.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i10/n01>

Markaziy Osiyo hududida shakllangan tarixiy shaharlar ichida Buxoro o'zining murakkab ijtimoiy tuzilishi, demografik rivojlanishi va ko'p qatlamli etnik tarkibi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bu shahar an'anaviy shahar

jamiyati namunasi sifatida shakllangan bo'lib, uning ichki tuzilishini o'rganishda turar-joy mahallalari (guzarlar) tizimi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mahalla nafaqat hududiy birlik, balki qarindoshlik, qo'shnichilik va ijtimoiy hamkorlik asosida shakllangan mustahkam ijtimoiy institut sifatida shahar hayotining asosiy tayanchi bo'lgan.

Buxoro shahrining tarixiy-demografik rivojlanishini tadqiq etishda aholi soni, joylashuv zichligi va etnik tarkibni aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Biroq mavjud manbalarda bu ko'rsatkichlar turlicha talqin etilgan bo'lib, ko'pincha an'anaviy va bo'rttirilgan raqamlar bilan ifodalangan. Shu bilan birga, shahar aholisi tarkibining shakllanishi qishloq hududlaridan ko'chish jarayonlari, siyosiy omillar va iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — Buxoro shahrining turar-joy mahallalari tizimi, aholi soni va etnik tarkibini tarixiy-etnografik manbalar asosida kompleks tahlil qilish hamda an'anaviy shahar jamiyati doirasida uning ichki rivojlanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

XIX asrning birinchi yarmidan boshlab Buxoro aholisi va uning etnik tarkibi haqida qimmatli ma'lumotlar rus va yevropalik sayyohlar, elchilar va tadqiqotchilar asarlarida uchraydi. 1820-yilda Buxoroga yuborilgan A.F. Negri missiyasi a'zolari — E.K. Meyendorff, X.P. Yakovlev va boshqalarning xotiralari bu borada juda boy. Meyendorffning "Orenburgdan Buxoroga sayohat" (1826) kitobida Buxoro amirligining geografiyasi, aholisi, xo'jaligi va savdosi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Ingliz sayyohi A. Byorns 1831–1832 yillarda Buxoroda bo'lib, "Buxoroga sayohat" asarida o'zbeklarning turmush tarzi, ijtimoiy hayoti va shahardagi joylashuvini yaxshi tasvirlagan. 1840–1850-yillarda N.V. Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" (1843) asari alohida ahamiyatga ega. Unda o'zbek qabilalari, tojiklar, turkmanlar va boshqa etnik guruhlarining soni, yashash joylari va mavqei haqida tizimli ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu ishda asosiy metod — adabiyotlar tahlili. Yuqoridagi rus va yevropalik mualliflarning asarlari solishtirilib, tarixiy-etnografik manba sifatida o'rganildi. Ma'lumotlar bir nechta manbadan tekshirilib, ishonchli xulosalar chiqarildi.

Buxoro shahri haqida ilmiy adabiyotlarda juda ko'p ma'lumot bor, lekin ularning ko'pchiligi sayyohlar va tadqiqotchilarning shaxsiy taassurotlari va vizual kuzatuvlariga asoslangan bo'lib, ko'pincha ishonchsiz hisoblanadi. Masalan, N. Xanikov shaharda 2500 dan ortiq uy yo'qligini aytib, aholisini 60-70 ming atrofida deb baholagan.[1] A. Vamberi va N.F. Sitnyakovskiy esa "365 ta masjid" degan eski an'anaviy raqamdan kelib chiqib, aholini 68 500 dan 80 000 gacha deb hisoblagan. I.T. Poslavskiy esa 1886 yilda Buxoro aholisini 50 ming kishi deb ko'rsatgan. [2]

Bu raqamlarning aksariyati biroz bo'rttirilgan yoki noto'g'ri hisob-kitoblarga asoslangan. Masalan, Sitnyakovskiy Turkistonning o'rtacha aholilik zichligidan foydalangan, ammo "360 ta kvartal" degan raqamni noto'g'ri asos qilib olgan. Natijada, bu hisoblar real holatni to'liq aks ettirmaydi.

1926 yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro shahrida 11 901 ta xonadon, 13 491 ta oila va jami 46 706 nafar aholi qayd etilgan (shundan 41 839 nafari mahalliy aholi). Bu raqam inqilobiy voqealar, fuqarolar urushi va iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli sezilarli darajada kamaygan davrni ko'rsatadi. Bundan tashqari, ayollar sonining kam

ko'rsatilishi va har bir oilada o'rtacha atigi 4 kishi bo'lishi ro'yxatning to'liq emasligidan dalolat beradi. [3]

Tadqiqotda tarixiy xaritalar, rejalar va etnografik suhbatlar asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, feodal davrdagi Buxoro mahallalari oddiy hududiy birlik emas, balki odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqa, o'zaro yordam va kundalik hayotni tartibga soluvchi muhim tizim bo'lgan. Har bir fuqaro o'z mahallasini yaxshi bilgan.

Asosiy manbalar orasida Parfenov-Fenin xaritasi (218 ta masjid, ulardan 201 tasi chorak masjidi), Saidjanov rejasi (197 ta chorak masjid), L.I. Rempel va M.S. Andreevning rejalarini, shuningdek 1925–1926 yillardagi mahallalar ro'yxatini (192 ta eski mahalla) alohida ta'kidlash mumkin. Muhim jihati shundaki, an'anaviy "360 ta mahalla" degan raqam real holatga to'g'ri kelmaydi. Tadqiqot natijasida Buxoroda haqiqiy mahallalar soni 200–217 ta atrofida bo'lganligi aniqlandi. Ba'zi mahallalarda hatto o'z masjidi ham bo'lmagan, shuning uchun ular yaqin atrofdagi masjidlardan foydalangan.

Aholi sonini hisoblashda turar-joy hududlaridagi xonadonlar sonini o'rtacha oila a'zolari soniga (taxminan 6 kishi) ko'paytirish usuli qo'llanilgan. Natijada, turar-joy hududlarida taxminan 12 500 xonadon bo'lib, bu 75 000 aholini tashkil etadi. Bunga Ark ichidagi aholini, karvonsaroylardagi vaqtinchalik savdogarlarni va madrasalardagi talabalarni (9000–10 000 kishi) qo'shganda, umumiy aholi soni 85 000–90 000 kishi atrofida bo'lgan degan xulosaga kelinadi.

Bu raqam shaharning o'sha davr uchun juda zich joylashganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, shahar markazida uylar hovlisiz va ko'pincha ikki qavatli qurilgan bo'lib, aholining yuqori zichligidan dalolat beradi.

Etnik tarkibga kelsak, Buxoro ko'p millatli shahar bo'lgan. 1926 yil ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro okrugida o'zbeklar 87,3 %, tojiklar esa 7 % ni tashkil etgan. Shahar aholisi asosan qishloqlardan ko'chib kelgan o'zbeklar, xorazmliklar, Shohmurod davrida Marvdan kelgan turkmanlar (17 000–30 000 kishi), shuningdek yahudiy, fors, arab, qozoq, tatar va boshqa millat vakillaridan iborat edi. Tojik tili Samarqand va Buxoroda uzoq vaqt saqlanib qolgan.

Shaharning qayta tiklanishi va aholining ko'payishi Mang'itlar sulolasi, xususan Amir Shohmurod davriga to'g'ri keladi. U ko'chmanchilarni soliqlardan ozod qilib, shaharga jalb qilgan. XVIII asrdagi falokatlardan keyin shahar aholisi qisman qaytgan va yangi etnik guruhlar bilan boyigan. Natijada Buxoro uzoq tarixiy jarayon natijasida shakllangan ko'p millatli va rang-barang jamoaga aylangan. N. V. Xanikov ma'lumotlariga ko'ra, amirlik hududida 97 ta urug' va qabila mavjud bo'lgan. [4]

Umuman olganda, eski sayyohlarning taassurotlariga asoslangan raqamlar o'rniga manbalar va hisob-kitoblarga tayanib, Buxoro XIX asr oxiri – XX asr boshida 85–90 ming aholiga ega, zich qurilgan, mahallalar tizimi rivojlangan va ko'p millatli shahar bo'lgan degan fikrga qo'shilaman. Bu raqam shaharni o'sha davr Markaziy Osiyoning muhim markazlaridan biri sifatida ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotda Buxoro shahrining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi turar-joy mahallalari tizimi, demografik ko'rsatkichlari hamda etnik tarkibi tarixiy-etnografik manbalar asosida kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek urug'lari shahar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida yetakchi o'rin egallagan. Ular mahalla-

guzar tizimini shakllantirish bilan birga, shaharsozlik jarayonlari, xo'jalik faoliyati va an'anaviy madaniyat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Xususan, Olga Aleksandrovna Suxareva ning fundamental ilmiy ishlari asosida aniqlanishicha, o'zbek urug'larining turmush tarzi, kasb-hunar an'analari, urf-odatlar hamda diniy marosimlari mahalla tizimi doirasida uzoq muddat davomida barqaror saqlanib kelgan. Shu bilan birga, shahar aholisi tarkibida o'zbeklar asosiy qatlamni tashkil etgan bo'lsa-da, tojiklar, xorazmliklar, turkmanlar, yahudiylar va boshqa etnik guruhlarining mavjudligi Etnografiya nuqtai nazaridan ko'p millatli ijtimoiy muhitning shakllanganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Buxoro shahri mahalla tizimi, aholi tarkibi va ijtimoiy tuzilishi jihatidan Markaziy Osiyodagi an'anaviy feodal shaharlar tipologiyasining yorqin namunasidir. Mazkur tadqiqot natijalari milliy etnologiya va urbanistik tarixni chuqur o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ular tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash, shahar jamoalarining tarixiy xotirasini tiklash hamda zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Н.Хаников,указ.соч.стр 96
2. И. Т. Поставки, указ. соч., стр. 85.
3. О.А.Сухарева. К историй городов Бухарского ханства. -Тошкент, 1958.- с.71
4. Ханьков, Описание Бухарского ханства. 1843, s. 65–78
5. X.Q.SULTONOV. *Ustozlar uchun*. 90, 1 (Feb. 2026), 192–205

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, may

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 10-son (may, 2026-yil). – 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-may

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.